

**DO'STLIK MASSIVI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARINING GUMUS
HOLATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7577656>



Jabborov Odil Abdumalikovich
"Tuproq tarkibi va repositoriyasi, sifati tahlil markazi"
Sodiqova Maftunaxon Olimjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,



ELSEVIER



Received: 22-01-2023

Accepted: 22-01-2023

Published: 22-01-2023

Abstract:

Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.


Hozirgi kunda tuproqlar unumdorligini, gumus holatini o'rganish uning o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillar yoki manbalarni aniqlash, ularning ilmiy yechimini topish, mexanizmlarini aniqlagan holda unumdorlikni oshirish yo'llari bo'yicha O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bugungi kunda ham ushbu ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirilib, innovatsion yondashuvlar asosida olib borilmoqda va muayyan darajada yutuqlarga erishilmoqda.

Tuproqlarning ustki yupqa, ya'ni eng unumdor qatlami chegaralangan bo'lib, dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini 93,9%dan ko'prog'i qishloq xo'jaligida foydalaniladigan tuproqlar sharoitida yetishtiriladi. Bu esa mavjud yer resurslaridan, jumladan sug'oriladigan tuproqlardan samarali va oqilona foydalanish, uning unumdorligini saqlash va tizimli ravishda yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni ta'qozo etadi.

Unumdorlik- bu tuproqning noyob qobiliyat bo'lib, bu qobiliyat o'simliklarning o'sishini ta'minlash va hosildorlikni optimallashtirish jarayonida namoyon bo'ladi. Tuproq unumdorligining pasayishi nafaqat o'simlikka balki isonlar hayotiga ham jiddiy havf tug'diradi.Tuproqning unumdor qatlami turli xil tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida o'zgaradi. Iqlim o'zgarishi, haroratning ortishi, eroziya jarayonlari, radioaktiv moddalar,chiqindilardan oqilona foydalanmaslik va boshqa turli xil salbiy omillar ta'sirida tuproqda gumusning kamayishi holatlari kelib chiqadi.Tuproq sifatini baholashda tegishli koeffitsientlar qo'llaniladi. Tuproq tarkibidagi gumus miqdori, fosfor, kaliy, shuningdek harakatchan fosfor va kaliy, unumdorlikni baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Do'stlik massivining sug'oriladigan maydoni 1959,59 ga ni tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki ushbu massiv So'g' konus yoyilmasining o'rta

qismida joylashgan bo'lib, o'tloqi saz (allyuvial) tuproqlar keng tarqalgan. Yer osti suvlari 2-2,5 m chuqurlikda joylashgan bo'lib So'g' konus yoyilmasining o'rta va Sirdaryoning qadimgi allyuvial tekislik hududlarida shakllangan. Tuproq qatlamlarida unsimon gips, zang dog'lari, ko'kish dog'lar, qoramtil dog'lar, hashorat izlari, tuzlarning tomirchasimon mayda kristallari shaklidagi yangi yaralmalarni ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra 20 ta kesma olingan bo'lib ushbu hudud tuproqlarida gumus asosan o'rtacha miqdorda ekanligi aniqlandi. 10-kesma bo'yicha olingan 0-25 qatlamlarda gumus miqdori 0,890 % ni tashkil etgan bo'lsa, 25-42 qatlamlarda 0,869 % ni tashkil qilgan. Keyingi kesmamizda ya'ni 25-kesmada 0-26 qatlamda 1,221 % ni tashkil etib, 26-48 qatlamlarda ushbu ko'rsatkich o'zgarmaganligini ya'ni ustki qatlamlarni bir xillagini ko'rishimiz mumkin. 40-kesmada 0-21 sm qatlamda 1,180 % ni tashkil etgan bo'lsa, 21-40 qatlamda 1,221 % ni tashkil etgan. Keyingi kesmamizda gumus miqdori bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra 0-27 sm qatlamda 1,656 % ni tashkil etib, 27-46 qatlamda 1,118%ni tashkil etdi. Barcha olingan kesmalarda gumus miqdori tebranib turganligi ya'ni ustki qatlamda yuqori ekanligi paastki qatlam tomon oz miqdorda kamayganligini ko'rishimiz mumkin.



1-diagramma. Hudud tuproqlari gumus bilan o'rtacha ta'minlangan.

Bunga bog'liq ravishda tuproqning fosfor, kaliy, miqdorlari ham o'zgarib borgan. Bu o'zgarishlarni tuproqning xossa- hususiyatlari, tuproqning mexanik tarkibi bilan uzviy bog'liq. Umumiy xulosaga ko'ra sug'oriladigan Do'stlik massivida tarqalgan tuproqlarning gumus miqdori ko'proq va o'rtacha ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu hudud tuproqlarining unumdorlik ko'rsatkichlariga keladigan bo'lsak 52,8 ball bonitetini tashkil etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gafurova L.A., Madrimov R.M., Razakov A.M., Nabieva G.M., Makhkamova D.Yu., Matkarimov T. R. Evolution, Transformation and Biological Activity of Degraded Soils. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 28, No. 14, (2019). Pp. 88-99.
2. Махкамова Д.Ю. Интегральные показатели эколого-биологического состояния почв исследуемой территории Джизакской степи. ISSN 2171-381X INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION VOLUME 1 ISSUE 1 -C.117-129
3. Махкамова Д.Ю., Абдужалилова О.Х. Чўл худуди тупроқларнинг шўрланиши, сизот сувлари ва сифат таркиби. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5 (75), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 317 б. – Босма нашрнинг электрон варианти - <http://mamun.uz/uz/page/56> ISSN 2091-573 X. –Б.129-132
5. Набиева Г.М., Махкамова Д.Ю., Ботирова Н.Т. Микробиологическая активность засоленных аллювиально-луговых почв Каракалпакской Республики (на примере Тахтакупырского тумана). Universum: химия и биология: научный журнал. – № 5(83), часть 1, М., Изд. «МЦНО», 2021. Электрон. версия печ. публ. – <http://7universum.com/ru/nature/archive/category/583>. -C. 47-53
6. Jabborov O.A. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligi dinamikasi va uni oshirish yo'llari. Avtoreferat. 2021.
7. Исманов А.Ж., Абдурахмонов Н.Ю., Қаландаров Н.Н. Мингбулоқ тумани суғориладиган тупроқларининг ҳолати ва улар унумдорлигини сақлаш ва оширишга доир тавсиялар// - Тошкент, 2019. -23 б.
8. Исманов А.Ж., Абдурахмонов Н.Ю., Қаландаров Н.Н., Мамажонова Ҳ.Х. Поп тумани суғориладиган тупроқларининг тавсифи, унумдорлиги ва уларни баҳолаш // “Қишлоқ хўжалигига янги тежамкор агротехнологияларни жорий этиш” мавзусидаги республика илмий-амалий конференсияси маъruzalari тўплами.- Тошкент, 2011. -Б. 96-100.
9. Мамажонов Ҳ.Х., Исманов А.Ж., Қаландаров Н.Н. Суғориладиган ўтлоқи саз тупроқларнинг ҳозирги ҳолати ва улар унумдорлигини ошириш// “Ўзбекистон тупроқшунослари ва Агрокимёгарлари жамиятининг В қурилтойи” материаллари. Тошкент, 2010. -Б. 91-94.